



## BOSHLANG'ISH SINFLAR TABIIY FANLAR DARSLIKLARINI O'QITISHNING ZAMANOVIY USULLARI

Usenbaeva Gozzal Azamat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti Boshlang'ish ta'lim fakulteti "Boshlang'ish ta'lim" ta'lim yo'nalishi 3-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15646031>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> June 2025  
Accepted: 05<sup>th</sup> June 2025  
Published: 11<sup>th</sup> June 2025

### KEYWORDS

*Boshlang'ish ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi, tabiiy fan*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tabiiy fan darslarini o'qitishdagi zamonaviy usullari va tabiiy fanni o'qitishdagi boshqada usullar haqida aytiladi.*

Tabiiy fan darsliklari maktablarga darslik sifatida 2020-2021 o'quv yillarida kirib kelgan. Ummat oldinroq tabiiy fan darsligining o'rniga 1,2-sinflar uchun "Atrofimizdagi olam", 3,4-sinflar uchun esa "Tabiyatshunoslik" darsligi o'tilgan. Hozirgi vaqtda tabiiy fan darsligi uchun boshlang'ish qoraqalpoq sinflarda 1,2- sinflarda 34 soat ya'ni haftasiga 1 soat, 3,4-sinflar uchun esa 68 soat haftasiga ikki soat vaqt ajratilgan. Qoraqalpoq 4-sinf o'quvchilari tabiiy fanni emas tabiyatshunoslik darsligini o'tadi. Ular uchun tabiiy fan darsligi qoraqalpoq sinflar uchun hali chop etilmagan. 1,2,3-sinf lar tabiiy fanlarda ular amaliy ishlarni ham olib boradi. Har bir mavzu uchun amaliy ishlar ajratilgan. Amaliy ishlar orqali o'quvchilar o'zlarining olgan bilimlarini mustahkamlab boradi. Amaliy ishlar juda ham qiziqarli. Bu o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziquvchanligini yanada orttirishga yordam beradi. Amaliy darslarni sinfda yoki sinfdan tashqari tabiiy fan uchun ajratilgan joylarda olib borish mumkin. Bazi maktablarda tabiiy fan uchun xonalar ajratilmagan bo'lishi mumkin. Bunday vaqtlarda amaliy ishlar sinfda tashkil etiladi. Sinf ichida bir burchakda tabiiy fan burchagi tayyorlanib qo'yiladi. Bu burchakda o'quvchilar tabiiy fan darslaridan amaliy ishlarni bajarishlari mumkin bo'ladi. Amaliy ishlar uchun kerak bo'lgan jihozlarni ushbu burchakka qo'yiladi. Boshlang'ish sinflarda tabiiy fan darslarida zamonaviy usullardan foydalanish uchun pili.ap saytidan foydalanishimiz mumkin. Bu saytda bizlar o'quvchilarga elektron doskalardan foydalangan holatda har xil qiziqarli darsga aloqadar o'yinlarni o'ynatishimiz mumkin bo'ladi. Masalan: bu sayt orqali bizlar darsga kim chiqishini aniqlasak bo'ladi. Elektron barabanga dastlab o'quvchilarning ismlarini yozib qo'yishimiz kerak, elektron baraban bizlarga kim doskaga chiqishini aniqlab beradi.

Flippity saytida bizlar har xil zamonaviy randomlar orqali o'quvchilar uchun qiziqarli darslarni o'tishimiz mumkin. Bu saytdagi randomlarga tabiiy fanlardan o'tilgan mavzular bo'yicha savollarni yozib qo'yganimizda elektron random bizlarga savollarni tanlab beradi.

Zamonaviy o'qitish vositalari:

Bosma o'quv qo'llanmalari

Kompyuter ta'limi

Audio dasturlari

Video dasturlari

Bosma o'quv metodik materiallar

Gipermatn(gipermedia) ko'rinishidagi o'quv qo'llanmalari

Elektron ko'rinishdagi o'quv metodik qo'llanmalar

Radio Retranslyatsion tarmoq

Audiodozuvlar

Audiokonferentsiya

Ovozli pochta

Ovozli va qayta aloqani ta'minlovchi televidenie

Elektron pochta

Qayta aloqani ta'minlovchi televidenie

Asta-sekin skanerdan o'tkazuvchi televidenie

Televizion videokonferentsiya

Video konferentsiya aloqa va boshqalari kiradi [2;37-b].

Hozirgi darsliklarda QR kodlar orqali o'quvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha videolarni yoki audiolarni qo'yib berishimiz mumkin. Videolarni qo'yib berganimizda o'quvchilar narsalarni o'z ko'zlari bilan ko'radi va mavzuga yanada yaxshi tushuna boshlaydi.

"Aqliy hujum", "Baliq skeleti", "Bilaman. Bilishni xohlamayman. Bilib oldim.", "Blits so'rov", "Bumerang", "Venn diogrammasi", "Zinama-zina", "Intervyu", "Klaster", "Nima uchun?", "Kungaboqar", "Savoljavob", "Suhbat", "Test", "FSMU", "Yelpig'ich", "Zakovatli zukko", "Gugurt donalari", "Idrok xaritasi", "Yagona davra" kabi metodlar o'quvchilarning bilimlarini oshiradi va darsga qiziqishini orttirib beradi [3;44-b].

Boshlang'ish sinflarda tabiiy fanlarda quyidagi metodlardan foydalanishimiz mumkin.

"T - sxema" Metodning maqsadi: Mazkur metod biror tushuncha, yoki ma'ruza bo'yicha o'rganilgan axborotlar tizimini qiyosiy tahlil etish, solishtirish, mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratish maqsadida qo'llaniladi. Bunda ta'lim oluvchi shaxsidagi: Mustaqil va ijodiy fikrlash; Axborotlar tizimini tahlil etish; O'z pozitsiyasida qa'tiy turish; O'z-o'zini nazorat qilish va baholash; Muloqotchanlik va o'zgarlar fikriga hurmat; Jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Metodni amalga oshirish tartibi: O'qituvchi o'quvchilarni miqdor jihatdan teng guruhlarga ajratadi; O'quvchilarni trening o'tkazishga qo'yilgan talablar va bajarilishi zarur bo'lgan topshiriq shartlari bilan tanishtiradi; Tarqatmalar o'quvchilar guruhiga beriladi va taklif etilgan sxema asosida qatnashchilar tushunchaga yoki muammoga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi. Bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy yo'nalishga ajratilib, kerakli ustunchalarga yoziladi; Belgilangan vaqt (10-15 daqiqa) yakuniga etgach, barcha guruhlarning faollari yordamida prezentatsiya tashkil etiladi; Barcha guruhlarning yakuniy xulosalari o'qib eshittirilganidan so'ng, trenero'kituvchi guruhlar ishini baholaydi va qo'shimcha to'ldirishlarni kiritadi [2;8-b].

Kutiladigan natija: O'quvchilar ma'ruza yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, mustahkamlaydi, ma'ruzaning mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi va shaxsiy munosabati shakllanadi.

“Kungaboqar” metodi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini erkin bayon eta olishga, o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlashga, o'quvchilarning bilim salohiyatini qay darajada ekanligini aniqlashda yordam beruvchi metod hisoblanadi [1].

“Test” metodi o'quvchilarning bilimini qay darajada ekanligini aniqlab, baholashga xizmat qiladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan tushuntirilib, uni mustahkamlash uchun test metodidan foydalanish ham mumkin. Masalan, 3-sinf tabiiy fan darsligining “Yerning ichki tuzilishi” mavzusi so'ngida o'quvchilarni olgan bilimlarini tekshirish hamda mustahkamlash uchun test berish mumkin.

“Beshinchisi ortiqcha” metodi orqali bizlar o'quvchilarning mavzuni qanshalik tushunganini ko'rishimiz mumkin. Bu metodta o'tilgan mavzuga oid to'rtta gap va mavzuga aloqasi yo'q bitta gap o'qiladi. O'quvchilar qaysi gapning o'tilgan mavzuga aloqasi yo'qligini topishlari kerak bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliqova. Z , Ro'ziyeva.D, Usmonboyeva.M, “Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi (metodik qo'llanma)”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti,2013;
2. Muslimov N.M umumiy tahriri ostida TA'LIM TEXNOLOGIYALARI FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI (metodik qo'llanma) T;2013

Internet saytlari:

3. <file:///C:/Users/User/Downloads/43-46.pdf>